

**OLIY TALIM MUASSASALARINING MASOFAVIY TALIMNI TASHKIL QILISH  
SHAROITLARI**

X.Jo'rayeva

*Farg'onan davlat universiteti*

*Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasи o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimizda pandemiya davrida masofaviy talimni tashkil qilish, uni amalga oshirishdagi yutuq va kamchiliklari to'g'risida so'zyuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Masofaviy talim, edektron platforma, axborot resurslari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

**CONDITIONS FOR THE ORGANIZATION OF DISTANCE LEARNING IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS DURING THE PANDEMIC**

X.Jo'raeva

*Lecturer at Fergana State University*

**Abstract:** This article discusses the achievements and shortcomings of distance learning in our country during the pandemic its implementation.

**Keywords:** Distance learning, electronic platform, information resources, information and communication technologies.

Mamlakatimizda masofaviy ta'limga tashkil qilish, uni amalga oshirish ko'p yillik tajribani o'z ichiga oladi. Eng katta va ommalashgan tajriba pandemiya davrida paydo bo'ldi. Har bir oliy ta'limga muassasasining professor-o'qituvchilar masofadan dars o'tishning bir qancha shakllari bilan tanishdilar. Masofadan ta'limga berishning elektron platformasi joriy qilinib, amaliyotda sinab ko'rildi.

Masofaviy ta'limga platformasi professor-o'qituvchilarga platforma orqali ta'limga berish imkoniyatini beradi. Bunday yondashuv muloqotning bir necha vositalarini birgalikda ishlatalishi tufayli an'anaviy usullarning samaradorligi oshadi. Axborot resurslaridan o'quv jarayonida foydalanishi ixtiyoriy masofaviy o'qitish tizimining asosiy komponentlaridan biri sanaladi. Masmun va shakl jihatdan yuqori darajali o'quv materiallar mustaqil ta'limga jarayonini rag'batlantirish hisobiga o'quv jarayoni samaradorligini oshiradi. O'qitishning masofaviy shakli, birinchi navbatda, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro aloqaga tayanadi. Shu bilan bir qatorda, aynan masofadan o'qish uchun mazkur platformaning barcha imkoniyatlari va kurs elementlaridan qanday to'g'ri foydalanish mumkinligi haqida batafsil bayon etiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining faol rivojlanishiga, masofaviy o'qitish tizimini qo'llab-quvvatlashning yanada kuchliroq platformalari paydo bo'lishiga qaramay, mamlakatimizda oliy ta'limga muassasalari talabalarini onlayn o'qitish tizimini g'arbniki bilan



solishtirib bo'lmaydi. Masofaviy ta'limni ishlab chiquvchilar o'qitish jarayonining barcha qonuniyatlarini har doim ham to'la qonli hisobga ola olmaydilar, shundan kelib chiqib u darajada mukammal modellardan foydanilmaydi. Bu masofaviy ta'lim tizimini ishlab chiquvchilar – yetarlicha texnik va metodik bilimga ega bo'lмаган professor-o'qituvchilar ekanligi bilan bog'liq. Shu bilan birga onlayn o'qitish sohasidagi ancha muvaffaqiyatliroq yechimlardan hamma yerda ham foydalilanilavermaydi.

Ta'lim tizimida masofaviy o'qitishning rivojlanishi davom etadi va ehtimol yaqin yillarda faollashadi: mavjud muammolarga qaramasdan, oliy ta'lim muassasalari uchun mablag'larni real tejalishi ko'rinish turibdi. To'g'ri, masofaviy o'qitish sohasidagi mutaxassislarning ta'kidlashicha, birinchi navbatda, dastlab masofaviy o'qitish mo'ljallangan chekka qishloqlarda tegishli texnik imkoniyatlar, yaxshi telekommunikatsiya kanallari paydo bo'lгandagina u keng tarqaladi.

Vatanimiz o'qituvchilari va metodistlari har doim shuni ta'kidlashadiki, masofaviy o'qitish hech qachon an'anaviy o'qitishning o'rnini bosa olmaydi. Hech narsa jonli pedagog bilan muloqotni yoki mashg'ulotlarda talabalar o'rtasida yuzaga keladigan muhitning o'rnini to'la qonli bosa olmaydi.

Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020 yil 7 avgustda ma'qullangan O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentabrdagi 637-sonli "Ta'lim to'g'risida" gi qonunining 16 – moddasida:

Masofaviy ta'lim o'quv rejali va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.

Masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi".

Oxirgisi ta'lim muassasalari faoliyatining tashkiliy-texnologik asoslarinpi reglamentlaydi, yangi uch darajali tashkiliy tuzilmani va bu tuzilmalarning kompetensiyalarini taklif qiladi. Yangi tashkiliy tuzilma – mintaqalarda masofaviy o'qitish vakolatxonasi kiritiladi.

Qandaydir sabablarga ko'ra an'anaviy ta'limga qatnay olmaydigan talabalarni o'qitish muammosi ancha avval paydo bo'lgan, biroq qoniqarli yechim haligacha topilmagan, uni yechishga yaqinda kirishildi. Bu muammoni hal qilishda ko'plab omillarni hisobga olish kerak, quyidagilar ularning orasida ustunlik qiladi: o'qitish sifati, qulaylik, iqtisodiy foyda va b.

Pandemiya davrida tibbiy ko'rsatmalarga asosan talabalar qisqartirilgan o'quv haftasiga ega bo'ladilar. Shundan kelib chiqib, bunday oliy talim muassasalarining mutaxassislik fanlariga asoslangan asosiy fanlar kiradi. Ba'zi o'quv fanlarining yo'qligini va uyda o'qitishning sifati pastligini kompensatsiyalash uchun masofaviy o'qitishni kiritish haqidagi qaror qabul qilingan. Oliy talim muassasalarining bemor talabalari turli kasallikkarga ega talabalarini ijtimoiylashtirishga, madaniy rivojlantirishga, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi fanlardan boshlang'ich ko'nikmalarni egallashlari uchun asosiy va qo'shimcha fakultativ mashg'ulotlarning dasturi yaratildi.



Bir yildan ortiq olib borilgan kuzatishlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, chekka xududlarda yashovchi talabalarni o'qitish shaharda yashovchi talabalardan o'zlashtirish jixatdan anchagina farq qilishini ko'rsatdi. Qishloq joylarda masofaviy o'qitishni rivojlantirish muammosi ancha keskin turadi, bu oliy talim muassasalarilarning ancha uzoqda joylashganligi, ba'zan esa yetib borish mumkin emasligi, yuqori malakali o'qituvchilarning yetishmasligi va talabalar sonining kamligi bilan tushuntiriladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abduqodirov A.A. Ta'lim tizimida masofali o'qitish texnologiyasi // Fizika, matematika va informatika. – T.: 2005. – №3. – B. 17–23
2. Abduqodirov A., Pardayev A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. –T.: Fan, 2009. – 145 b.
3. Begimkulov U.SH. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy–nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 144 b.
4. Ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish//  
<http://idum.uz/archives/9428>